ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 12

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.12.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)*
O‘ral Xoliyorov, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)*
Olmos Ulviy Binnatova, *f.f.d., professor (Ozarbayjon)*
Karl Rayxl, *f.f.d., professor (Germaniya)*
Vali Savash yelok, *f.f.d., professor (Turkiya)*
Dorota Silviya, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)*
Muslihiddin Muhiddinov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Ibodulla Mirzayev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Abdi Mamatov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Suyun Karimov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Muhammadxon Hakimov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Nafas Shodmonov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Dilmurod Quronov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Murodqosim Abdiyev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Baxtiyor Mengliyev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Normat Yo‘ldoshev, *f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)*
Abdulla Xudoyqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Bobonazar Murtazayev, *f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)*
Asqar Eshmo‘minov, *f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)*
Obidjon Shofiyev, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)*
Zafar Umurqulov, *f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)*
Nurali Amonturdiyev, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Hakim Ahmedov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Ahad Shukurov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Eshnazar Jabborov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Abdumurod Arslonov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Sirojiddin Turdimurodov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Umida Raximova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Gulchehra Begmatova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Nargis Qurbonazarova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Muyassar Xolova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Shoira Omonturdiyeva, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Sherzod Turdiqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Zaynura Qodirova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Humayun Nadim Muhammad, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Dilrabo Ergasheva, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.12.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100
Цена договорная
Заказ: 155
Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул.
Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, *доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)*
Шохиста Махмараимова, *доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)*
Урал Холияров, *ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Олмос Улвий Биннатова, *д.ф.н., профессор (Азербайджан)*
Карл Райхл, *д.ф.н., профессор (Германия)*
Вали Саваш Елок, *д.ф.н., профессор (Турция)*
Дорота Сильвия, *PhD, доцент (Польша)*
Муслихиддин Мухиддинов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Ибодулла Мирзаев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Абди Маматов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Суюн Каримов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мухаммадхон Хакимов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нафас Шодмонов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Дилмурод Куронов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мурадкасим Абдиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Бахтиёр Менглиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нормат Юлдашев, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Абдулла Худайкулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Бобоназар Муртазаев, *ф.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Аскар Эшмуминов, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Обиджон Шофиев, *д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Зафар Умуркулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Нурали Амонтурдиев, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хаким Ахмедов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Ахад Шукуров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Эшназар Джаббаров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Абдумурод Арслонов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Сирожиддин Турдимуродов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Умида Рахимова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Гульчехра Бегматова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Наргис Курбаназарова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Муяссар Холова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шаира Амонтурдиева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шерзад Турдикулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Зайнура Кадирова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хумаюн Надим Мухаммад, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Дильрабо Эргашева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President`s Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.12.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94
Offset printing. Offset paper
Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155

Printed at the
«Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)*
Shohista Makhmaraimova, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)*
Ural Kholiyorov, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Olmos Ulviy Binnatova, *doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)*
Karl Rayxl, *doct.of philol. sciences, professor (Germany)*
Vali Salvash Elok, *doct. of philol. sciences, professor (Turkey)*
Dorota Silvia, *PhD, associate professor (Poland)*
Muslihiddin Mukhiddinov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Ibodulla Mirzaev, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Abdi Mmatov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Suyun Karimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muhammadkhon Khakimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Nafas Shodmonov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Dilmurod Kuronov, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muradkasim Abdiyev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Bakhtiyor Mengliev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Normat Yuldashev, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Abdulla Khudaykulov, *PhD (Uzbekistan)*
Bobonazar Murtazaev, *cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Askar Eshmuminov, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Obidjon Shofiev, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Zafar Umurkulov, *PhD (Uzbekistan)*
Nurali Amonturdiev, *PhD (Uzbekistan)*
Hakim Akhmedov, *PhD (Uzbekistan)*
Ahad Shukurov, *PhD (Uzbekistan)*
Eshnazar Jabbarov, *PhD (Uzbekistan)*
Abdumurod Arslonov, *PhD (Uzbekistan)*
Sirojiddin Turdimurodov, *PhD (Uzbekistan)*
Umida Rakhimova, *PhD (Uzbekistan)*
Gulchekhra Begmatova, *PhD (Uzbekistan)*
Nargis Kurbanazarova, *PhD (Uzbekistan)*
Muyassar Kholova, *PhD (Uzbekistan)*
Shoira Omonturdiyeva, *PhD (Uzbekistan)*
Sherzod Turdikulov, *PhD (Uzbekistan)*
Zaynura Kadirova, *PhD (Uzbekistan)*
Humayun Nadim Muhammad, *PhD (Uzbekistan)*
Dilrabo Ergashova, *PhD (Uzbekistan)*

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

JO‘RAYEVA BIBISH MUXSINOVNA,
TO‘XTAYEVA DILAFRUZ ASHUROVNA
Ekspressivlik va intensivlik munosabati.....7

ЁҚУБОВ ШАРИФ
Дарбанд, Темир дарвоза, Оққўтал ва
“Темирдан ясалган дарвоза” атамалари таҳлили 11

SHUKUROV AHAD AHMADOVICH
Tarixiylikni ifodalovchi eskirgan so‘zlar 15

AMONTURDIYEV NURALI RASHIDOVICH
O‘zbek tili izohli lug‘atlarida etnografizmlar aksi 18

RAXIMOVA UMIDA DJUMAYEVNA
Hamid Olimjon ijodida so‘z sehri 23

TURDIQULOV SHERZOD DUMINOVCH
Onomastik ko‘lamda teotoponimlar tadqiqi.....26

ABDURAXMANOV SHAVKATJON ASHUROVICH
Funksional sintaksis haqida mulohazalar.....29

VAFOYEVA MUXAYYO YULDOSHEVNA
Sinonimlarda miqdor o‘zgarishlarining ayrim ko‘rinishlari xususida.....32

TUYCHIYEVA OYDIN SAYFULLAYEVNA
Fors tilida shart-istak mayli qo‘llanilishining o‘ziga xos xususiyatlari.....36

SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA
Intralingval lakunalarning lisoniy tabiati 40

DUSNAZAROVA MAVJUDA ILYAMONOVNA
Nikoh marosimlarida milliy o‘zlikning aks etishi.....46

KADIROVA SAIDA MAXSUDOVNA
Badiiy tasvir va ifoda vositalarining adabiyotdagi roli 49

МУНДАРИЖА

TO‘YCHIYEVA ZULAYHO HAMROQO‘LOVNA
Islomiy paremalogik religionimlar 53

ABDUVALIYEVA KAMOLA SHAVKAT QIZI
“Shajarayi turk” asaridagi etnonimlarning hozirgi
O‘zbekiston hududida etnotoponim sifatida uchrashi 56

RAHMATULLOYEV AHTAM A’ZAM O‘G‘LI
Fors tilida otning semantik tasnifi 60

HAMDAMOVA NASIBA TO‘RABEKOVNA
Diniy leksikaning semantik xususiyatlari
(ekzotik leksika, frazeologizmlar, paremiologik birliklar misolida).....64

YO‘LDOSHEVA NARGIZA
“Alpomish” dostonida mavjud fonetik dialektizmlar.....68

ВАПАЕВА АНАХОН НАСУРИЛЛАЕВНА
Молодёжный сленг в вузах: дешифровка
(на примере студентов Университета Маъмуна) 71

ИСМАИЛОВА ФЕРУЗА ИСМАИЛОВНА
Народные пословицы в произведениях русских писателей.....75

OBLOQULOVA ZILOLA ULUG‘BEKOVNA
O‘zbek tilida taqinchoq nomlari semantikasi.....79

ADABIYOTSHUNOSLIK

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Жанровое многообразие циклических произведений.....83

TA’LIM

XOJIYEVA IRODA ZOKIRJON QIZI
Ta’lim tojik tilida olib boriladigan umumta’lim maktablarda o‘zbek tili
(davlat tili) fanini o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari 90

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

DINIY LEKSIKANING SEMANTIK XUSUSIYATLARI (EKZOTIK LEKSIKA, FRAZEOLOGIZMLAR, PAREMIOLOGIK BIRLIKLAR MISOLIDA)

Hamdamova Nasiba To'rabekovna,
Termiz davlat universiteti filologiya fakulteti
Lingvistika (o'zbek tili) ixtisosligi magistranti

Diniy leksika o'zining semantik xususiyatlari bilan ham ajralib turadi. Bu so'zlar odatda an'anaviy va rasmiy kontekstda ishlatiladi va ko'pincha chuqur ramziy ma'noga ega bo'ladi. Diniy leksikaning ma'nosi ko'pincha kontekstual bo'lib, u diniy matn yoki marosimning mazmuniga qarab o'zgarishi mumkin. Bu esa diniy leksikani semantik tahlil qilishda qiyinchilik tug'diradi, chunki uning ma'nosi faqat so'zning lug'aviy ma'nosi bilan cheklanmaydi, balki uning ramziy va diniy ahamiyati bilan bog'liqdir. Diniy leksika, shuningdek, sintaktik jihatdan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu leksik birliklar ko'pincha ibodatlar, duo va marosimlar matnlarida qat'iy sintaktik tuzilmalarda qo'llaniladi. Bunday matnlarda diniy so'zlar va iboralar odatda o'ziga xos tartibda joylashadi va bu tartib ularning ma'nosini va ta'sirchanligini oshiradi. Masalan, Qur'on oyatlari yoki va'z matnlarida so'zlarning joylashuvi va tuzilishi matnning tantanavorligini va ma'nosini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Diniy nutq va matnlar ko'pincha axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni ifodalash, jamiyatning diniy e'tiqodlarini mustahkamlash, shuningdek, diniy marosimlarda qatnashuvchilarni birlashtirish uchun ishlatiladi. Diniy leksika yordamida insonlar o'zlarining diniy e'tiqodlarini ifodalaydilar, boshqalar bilan diniy muloqotga kirishadilar va diniy tajribalarini o'rtoqlashadilar. Diniy leksika ko'pincha boshqa leksik qatlamlardan kiritilgan so'z va iboralarni ham o'z ichiga oladi. Bu jarayonni leksik ko'chirma yoki zaimka deb atash mumkin. Masalan, islom dini bilan bog'liq ko'plab arabcha so'zlar o'zbek tiliga kiritilgan va ular diniy leksika sifatida qabul qilingan[1]. Ushbu ko'chirilmalar odatda asli tilidan farqli ravishda ishlatiladi va yangi tilning diniy kontekstida o'zining yangi ma'nosini oladi. Diniy leksikaning yana bir muhim xususiyati uning ma'naviy va axloqiy yuk bilan bog'liq bo'lishidir. Ushbu leksik birliklar insonlar orasida katta hurmat va ehtirom bilan qabul qilinadi. Diniy leksikaning to'g'ri yoki noto'g'ri kontekstda ishlatilishi odamlar orasida norozilik yoki mojaroga olib kelishi mumkin. Shu sababli, diniy leksika juda ehtiyotkorlik bilan ishlatilishi lozim. Umuman olganda, diniy leksika til tizimida muhim o'rin tutadi va uning lingvistik xususiyatlari tilshunoslikning turli sohalarida o'rganiladi. Ushbu leksika tilning semantik, sintaktik, pragmatik va uslubiy qatlamlarida o'ziga xos o'rin egallab, madaniy va ma'naviy qadriyatlarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Diniy leksika til va madaniyatning ajralmas qismi bo'lib, u insonlar orasidagi diniy e'tiqod va qadriyatlarni mustahkamlashda xizmat qiladi.

Diniy leksika tilning boshqa lug'at qatlamlaridan farqli va o'xshash jihatlari bilan ajralib turadi. Quyida diniy leksika bilan boshqa lug'at qatlamlari, xususan, adabiy leksika va boshqa sohalardagi leksik qatlamlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, farqli va o'xshash jihatlarni ko'rib chiqamiz. Adabiy leksika tilning estetik va badiiy maqsadlarda ishlatiladigan so'z va iboralarini o'z ichiga oladi. Diniy leksika esa odatda muqaddas va ma'naviy ma'noga ega bo'lgan, diniy kontekstda qo'llaniladigan so'z va iboralar majmuasidir. Har ikkala leksik qatlam ham o'ziga xos uslubiy va semantik xususiyatlarga ega bo'lib, ularning qo'llanilishi maxsus kontekstlarda ro'y beradi. Diniy leksika ko'pincha adabiy matnlarda ramziy yoki allegorik ma'noda qo'llaniladi. Masalan, adabiy asarlarda diniy tushunchalar, ramzlar va personajlar yordamida muallif o'zining badiiy g'oyalarini ifodalashi mumkin. Bu holatda diniy leksika adabiy leksikaga aylanadi, chunki u badiiy maqsadlarda ishlatiladi. Adabiy leksika esa o'z navbatida, diniy mazmunni chuqurroq tushunishga yordam beradi, chunki adabiyot va diniy e'tiqodlar ko'pincha o'zaro bog'liq bo'lgan holda ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni ifodalaydi. Adabiy leksika bilan diniy leksikaning o'zaro aloqadorligi shundan iboratki, ko'plab adabiy asarlarda diniy leksikaga xos bo'lgan tushunchalar, iboralar va so'zlar ishlatiladi. Misol uchun, o'zbek adabiyotida Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur zamonaviy adabiyotda esa Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Mirzo Kenjabek va boshqa adiblarning asarlarida diniy tushunchalar

[1] Абдураҳмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973. – Б. 134

o‘zining badiiy ifodasini topgan. Diniy leksika odatda jamiyatda muqaddas va hurmatga sazovor bo‘lgan tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi va bu leksika orqali jamiyatning diniy-madaniy merosi saqlanadi. Masalan, “*rahmat”, “duo”, “mo‘jiza*” kabi so‘zlar o‘zida chuqur diniy mazmunni ifodalagan holda, insonlarning diniy e’tiqodlari va ibodatlarini ifodalash uchun ishlatiladi. Diniy leksikaning ma’naviy-madaniy vazifalari til tizimida uni boshqa leksik qatlamlardan ajratib turadi. Diniy leksika tilning murakkab va boy qatlamidir. Ushbu qatlamning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rib chiqishda uni boshqa lug‘at qatlamlari, jumladan, ekzotik leksika, frazeologizmlar va paremiologik birliklar bilan solishtirish orqali yaxshiroq tushunish mumkin. Diniy leksika va ekzotizm(ma’lum bir xalqning, mamlakatning milliy, madaniy hayotini o‘zida aks ettiruvchi va tarjimada ekvivalenti mavjud bo‘lmagan so‘z)lar turli xil til qatlamlariga kiruvchi, ammo o‘ziga xos ma’no va shakl xususiyatlariga ega bo‘lgan leksemalar hisoblanadi. Ularning har biri funksiyaga ega bo‘lib, o‘zining shakllanishi va ishlatilishi nuqtai nazaridan farqlanadi. Bu farqlarni tahlil qilishda diniy leksika va ekzotizmlarning lingvistik jihatlarini alohida o‘rganish zarur. Ekzotik leksika odatda o‘zga madaniyatlar, tillar yoki geografik hududlardan kirib kelgan so‘z va iboralarni o‘z ichiga oladi. Bu leksik qatlam ko‘pincha madaniyat yoki e’tiqodiy odatlar orqali kirib keladi hamda leksik qatlamni boyitadi. Diniy leksika va ekzotik leksika o‘rtasida ba’zi o‘xshashliklar mavjud, chunki diniy leksikaning ko‘plab elementlari ham boshqa tillardan kirib kelgan bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘zbek tilidagi ko‘plab diniy so‘zlar arab tilidan kirib kelgan: *“masjid”, “imom”, “ro‘za”, “savob” “gunoh”, “assalomu alekum”, “tavba”, “istig‘for”, “hamd”, “sano”, “salovat”, “durud”* kabi so‘zlar bunga misol bo‘la oladi. Ekzotik leksika, odatda, yangi ma’lumotlar va madaniyatni kiritish orqali tilni boyitadi. Biroq, bu leksika odatda aniq bir geografik yoki madaniy kontekstda saqlanib qoladi va kengaytirilib, umumiste’moldagi leksikaga aylanmasligi ham mumkin. Diniy leksika esa, aksincha, keng jamoat tomonidan qabul qilinadi va ko‘pincha tilning boshqa sohalariga ham kirib boradi[1]. Ekzotik leksika ba’zan diniy leksikaning bir qismi bo‘lib qoladi, ayniqsa, din boshqa madaniyatlar va tillar bilan aloqa qilgan holda rivojlangan bo‘lsa. Ekzotik leksikaning diniy leksikaga kiritilishi natijasida o‘zbek tilida ko‘plab arabcha so‘zlar mustahkam o‘rin egalladi. Bu so‘zlar o‘zining dastlabki ma’nosidan tashqari, yangi kontekstda qo‘llanilganligi sababli ma’naviy va axloqiy yuk orttiradi. Misol uchun, *“zakot”*(a. زكوة– poklik, poklanish; sadaqa;) yoki “*salom*” (a. السلام – Alloh ismlaridan biri)[2] so‘zlari diniy leksikaning o‘ziga xos bir qismiga aylangan. Diniy leksika va ekzotizmlarning o‘zaro bir-biri bilan bog‘liqligi bo‘lgani kabi mazmuniy farqlari ham mavjud. Diniy leksika va ekzotizmlar orasidagi mazmuniy farqlardan biri shundaki, diniy leksika chuqur diniy, ruhiy va e’tiqodiy ahamiyatga ega bo‘lgan so‘zlardan iborat bo‘lsa, ekzotizmlar ko‘proq madaniy rang-baranglikni aks ettiradi. Shaklan esa, diniy leksika barqaror shaklda va qat’iy o‘zgarmas ma’no bilan keladi, ekzotizmlar esa kirib kelgan tilda yangi shakllar va o‘zgarishlar olishi mumkin. Diniy leksika jamoa e’tiqodi va diniy amaliyotlar orqali keng tarqalgan bo‘lsa, ekzotizmlar ko‘pincha bir guruh yoki madaniyatni ifodalaydi va ko‘proq badiiy adabiyot yoki madaniy kontekstda qo‘llaniladi.

Diniy leksika va ekzotizmlar xalq ongida qabul qilinishida ham sezilarli farqlarga ega bo‘lib, har ikkisi turli ma’naviy va madaniy asoslarga ko‘ra o‘ziga xos tarzda anglanadi. Bu leksemalar xalq orasida qanday qabul qilinishini tushunish uchun ularning ma’no yukini, tarixiy va madaniy kontekstlarini, hamda jamiyatdagi rolini chuqurroq o‘rganish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Diniy leksika xalq orasida yuqori hurmat va qutlug‘lik darajasiga ega bo‘lsa, ekzotizmlar ko‘pincha yangi, qiziqarli yoki o‘ziga xos ma’noda qabul qilinadi. Diniy leksika, asosan, jamiyatdagi diniy qadriyatlarni mustahkamlash va ularni asrlar davomida saqlab qolish vazifasini bajaradi. Ekzotizmlar esa xalq ongida boshqa madaniyat va til vakillariga nisbatan qiziqish va hayratni uyg‘otadi, biroq ular diniy leksika kabi chuqur e’tiqodiy ma’noga ega emas. Shu tariqa, diniy leksika va ekzotizmlar xalq ongida turli xil ijtimoiy va madaniy xususiyatlar bilan ajralib turadi.

Frazeologizmlar – bu tilning o‘ziga xos bir qismi bo‘lib, ular odatda ikki yoki undan ortiq so‘zlarning barqaror birikmasidan tashkil topgan bo‘ladi va ularning ma’nosi odatda bir butunlikda tushuniladi. Frazeologizmlar ko‘pincha ramziy va obrazli ma’noga ega bo‘ladi, shuning uchun ularni so‘zma-so‘z tarjima qilish yoki o‘z ma’nosida tushunish mumkin emas. Diniy leksika bilan frazeologizmlar o‘rtasida ham ma’lum o‘xshashliklar mavjud, bu o‘xshashlik – ularning ramziy ma’nolarga ega va o‘ziga xos uslubiy xususiyatlarga egaligidir. Diniy frazeologizmlar diniy e’tiqodlar va qadriyatlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan, o‘zbek tilida “makkorlik qilmoq” frazeologik birikmasi Islom dinida ma’lum bir shaxsiy sifatga ishora qiladi, bu esa uning diniy ahamiyatini oshiradi. Frazeologizmlar diniy leksikaning boyligi va murakkabligini aks ettiradi, chunki ular ko‘pincha diniy

[1] Qo‘shoqova B. Diniy leksikani o‘rganishda turli yondashuvlar.// TDPU Ilmiy axborotlari jurnali. №6, 2020. – B. 221.

[2] Omonturdiyev J., Omonturdiyev A. Ma’rifiy-irfoniy istilohlar izohli lug‘ati. – T.: Mumtoz so‘z, 2014. – B. 48.

tushunchalarni umumiy nutq kontekstida ishlatishga imkon beradi. Bu frazeologik birliklar diniy tushunchalarni keng ommaga yetkazishda va ularning tushunilishini osonlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Frazeologizmlar, shuningdek, diniy leksikaning uslubiy xususiyatlarini kuchaytiradi. Ular orqali diniy mazmuni chuqurroq ifodalash va uni o‘quvchi yoki tinglovchiga yetkazish imkoniyati oshadi. Frazeologik birliklar diniy matnlarda keng qo‘llanilib, ularning tantanavor va ma’naviy ma’nosini yanada kuchaytiradi. Misol uchun, “savob qilsang, o‘zingga”, “Allohning qahriga uchrama”, “Darding nima bo‘lsa ham, umiding har zamon Alloh bo‘lsin” , “Piringning ham piri bor”, “Tuyaning dumi yerga tekkanda, xo‘janing qizi erga tegar”, “Mullaning saxiyligi – tilida”, “Zolimdan panoh tilama, fosiqdan–vafo”, ”Mullaning aytganini qil, qilganini qilma ”, “Mulla bilganin o‘qir” kabi maqol va matallar diniy leksikaga asoslangan. Paremiologik birliklar ko‘pincha diniy mazmun bilan to‘ldirilgan bo‘lib, ular xalqning diniy qarashlari va e’tiqodlarini ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Bu birliklar orqali xalqning diniy e’tiqodlari va qadriyatlari avloddan-avlodga o‘tadi. Diniy leksika esa bunday paremiologik birliklarni boyitadi va ularning semantik va ramziy ma’nosini yanada chuqurlashtiradi. Paremiologik birliklar, shuningdek, diniy leksikaning ta’sirini ko‘rsatadi, chunki ko‘plab maqollar va matallar aynan diniy kontekstdan kelib chiqqan. Bu birliklar xalq orasida diniy e’tiqodlarni mustahkamlashga xizmat qiladi va ularga ma’naviy va axloqiy ahamiyatni yuklaydi.

O‘zbek adabiyotida diniy leksikaning rivojlanishi tarixi ko‘p asrlik murakkab jarayondir. Har bir davrda diniy leksika o‘ziga xos rivojlanish bosqichlarini boshdan kechirgan, va u adabiyotning ajralmas qismiga aylanib, xalqning ma’naviy merosini saqlab qolishda muhim rol o‘ynagan. Diniy leksikaning boyligi va xilma-xilligi o‘zbek adabiyotining umumiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan va uning badiiy mazmunini boyitgan. Diniy leksika O‘zbek adabiyotida ko‘pincha ramziy va allegorik ma’nolarni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu xususiyat diniy leksikaning badiiy asarlarda keng qo‘llanilishining asosiy sababi hisoblanadi. Masalan, “*nur*” so‘zi ko‘p hollarda ilohiy haqiqat yoki ma’rifatning ramzi sifatida ishlatiladi. Shuningdek, “yomonlik” yoki “zulmat” so‘zlari insonning ruhiy holati yoki axloqiy tubanligini ifodalash uchun allegorik ma’noda qo‘llanilishi mumkin. Ramziy va allegorik ma’nolar diniy leksikaning badiiy asarlarda chuqurroq tushunilishi va o‘quvchida ta’sirchan his-tuyg‘ularni uyg‘otishiga xizmat qiladi. Diniy tushunchalar badiiy asarlar orqali yangi kontekstlarda qayta talqin qilinadi, bu esa ularning ma’no doirasini kengaytiradi va ularni yangi darajalarda ifodalashga imkon beradi. Diniy leksika o‘zbek adabiyotida uslubiy jihatdan ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. Bu leksikaning qo‘llanilishi badiiy asarlarning uslubiy rang-barangligini oshiradi va muallifning uslubiy yondashuvini boyitadi. Misol uchun, diniy leksika tantanavor, tantanali yoki dramatik uslubda qo‘llanilishi mumkin. Shuningdek, diniy leksikaning qo‘llanilishi asarning uslubiy yagona bo‘lishini ta’minlaydi va muallifning maqsadini ifodalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Diniy leksikaning uslubiy xususiyatlari ko‘pincha muallifning diniy e’tiqodlari va asarining mavzusi bilan bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham, diniy leksikaning qo‘llanilishi asarning uslubini belgilaydi va uning ma’no qatlamlarini boyitadi[1].

Diniy leksika badiiy asarlarning mavzularini yoritishda va muallifning maqsadini ifodalashda muhim vosita sifatida ishlatiladi. Asarlarida diniy mavzularni yoritgan mualliflar ko‘pincha diniy leksikadan foydalangan holda, o‘zining asarida ko‘tarilgan ma’naviy va axloqiy masalalarni o‘quvchiga yetkazishga harakat qilganlar. Masalan, Mirzo Kenjabekning she’rlarida diniy leksika orqali insonning ma’naviy hayoti, axloqiy qadriyatlari va ilohiy haqiqatlar yoritiladi. Diniy leksikaning qo‘llanilishi asarning mavzusini kengaytiradi va chuqurlashtiradi. Badiiy matnda diniy tushunchalar va so‘zlarning qo‘llanilishi muallifning maqsadini aniqroq ifodalashga va asarning o‘quvchiga ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Diniy leksika semantik jihatdan o‘ziga xos bo‘lib, uning asosiy xususiyati so‘zlarning ko‘p qatlamli ma’noga ega ekanligidir. Bu leksika so‘zlari odatda diniy tushunchalar va ramzlarni ifodalashda ishlatiladi, bu esa ularning semantik yukini oshiradi. Masalan, *“jannat”* (تنج a. Bihisht, bo‘ston, serdaraxt bog‘; solih , guhohsiz kishilar vafotidan so’ng yashaydigan makon)[2] so‘zi nafaqat ilohiy va oxiratdagi najot manzilini ifodalashi, balki dunyoviy baxt, tinchlik va farovonlikni ramziy ma’noda ham anglatishi mumkin. Shu tariqa, diniy leksika so‘zlari bir vaqtning o‘zida bir nechta semantik qatlamlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Diniy leksikaning semantik xususiyatlaridan yana biri uning ma’nosining an’anaviylik va barqarorlikka asoslanganligidir. Bu so‘zlarning ma’nosi ko‘pincha vaqt o‘tishi bilan kam o‘zgaradi, chunki ular muqaddas matnlar va diniy e’tiqodlar bilan bog‘liq. Shuningdek, diniy leksika ko‘pincha biror-bir diniy maktab yoki ta’limotning ta’siri ostida shakllanadi, bu esa uning semantik aniq va izchil bo‘lishiga

[1] Каримов С. Ўзбек тилининг диний услуби ҳақида баъзи мулоҳазалар // Истиқлол йиллари: миллий-диний қадриятларнинг халққа қайтиши. Ўзбекистон Республикаси Имом ал-Бухорий халқаро жамғармасининг ЎзР. Мустақиллигининг 10 йиллигига бағишланган илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент, 2001.

[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ўзбекистон миллий энциклопедияси 5-томлик, 2-том. –Тошкент, 2006-2008. – Б.72

olib keladi. Diniy leksikaning morfologik xususiyatlari uning boshqa lug‘at qatlamlaridan ajralib turuvchi jihatlarini belgilaydi. Diniy leksika ko‘pincha o‘ziga xos morfologik tuzilishga ega bo‘ladi, chunki uning ko‘p qismi qadimiy til qatlamlari yoki boshqa tillardan olingan so‘zlardan iboratdir. Shuningdek, diniy leksika morfologik jihatdan barqarorlikka ega bo‘ladi. Diniy so‘zlar ko‘pincha o‘z shaklini o‘zgartirmaydi yoki juda kam o‘zgaradi, chunki ular muqaddas matnlar va diniy amaliyotlar bilan bog‘liq. Bu morfologik barqarorlik diniy leksikaning boshqa leksik qatlamlardan farqli o‘laroq, an’anaviylik va izchillikni saqlab qolishiga yordam beradi. Diniy leksika sintaktik jihatdan ham o‘ziga xosdir. Bu leksika ko‘pincha maxsus ibora yoki jumla tuzilmalarida ishlatiladi, bu esa uning sintaktik xususiyatlarini belgilaydi. Diniy matnlarda ko‘pincha murakkab jumlalar va iboralar ishlatiladi, bu esa diniy leksikaning sintaktik jihatdan murakkab bo‘lishiga olib keladi. Bundan tashqari, diniy leksika ko‘pincha ma’lum bir sintaktik tuzilmada ishlatiladi, bu esa uning semantik va pragmatik ma’nosini aniqlaydi. Masalan, diniy matnlarda “haq yo‘li”, “ilohiy rahmat” kabi iboralar ko‘p uchraydi va bu iboralar ma’lum bir sintaktik tuzilmani saqlaydi. Bu esa diniy leksikaning sintaktik jihatdan izchil va barqaror bo‘lishiga olib keladi. Shu bois, diniy leksikaning pragmatik xususiyatlari uni boshqa lug‘at qatlamlardan ajratib turadi. Diniy leksikaning lingvistik xususiyatlari ko‘plab tilshunoslar tomonidan tadqiq qilingan. Bu tadqiqotlar diniy leksikaning turli tillarda va madaniyatlarda qanday shakllanganini, rivojlanganini va qo‘llanilganini o‘rganishga qaratilgan. Jahon tilshunosligida diniy leksikaning tadqiqi keng ko‘lamda olib borilgan[1]. Bu tadqiqotlar ko‘pincha semantik tahlil, etimologik tadqiq va sotsiolingvistik yondashuvlarga asoslanadi. Masalan, G‘arb tilshunosligida diniy leksikaning semantik jihatlari ko‘p tahlil qilingan, ayniqsa, bu leksikaning Injil va Qur’on matnlarida qanday qo‘llanilishi alohida o‘rganilgan. Shuningdek, diniy leksikaning ramziy va allegorik ma’nolari ham jahon tilshunosligida ko‘p o‘rganilgan. Bu tadqiqotlar diniy leksikaning badiiy asarlarda qanday qo‘llanilishi va uning estetik ta’siri haqida chuqur ma’lumot beradi. G‘arb tilshunoslari diniy leksikaning pragmatik jihatlarini ham tahlil qilishgan, bu esa uning axloqiy va ma’naviy ta’sirini tushunishga yordam beradi.

Rezyume: Maqolada diniy leksikaning semantik jihatlari, uning funksiyalari, ekzotika va paremiologik birliklarning diniy leksika bilan o‘xshash va farqlari xususida so‘z yuritildi.

Resume: The article discusses the semantic aspects of the religious lexicon, its functions, similarities and differences of exotic and paremiological units with the religious lexicon.

Резюме: В статье рассматриваются семантические аспекты религиозной лексики, ее функции, сходства и различия экзотических и паремиологических единиц с религиозной лексикой.

[1] Баскаков Н.А. Структурные и функциональные стилистические модификации в современных тюркских языках// Развитие стилистических систем литературных языков народов СССР. – Ашхабад. – Б.1968